Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmataliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

OLIY TA'LIMDA DUAL TA'LIM VA MALAKAVIY AMALIYOTNI TAKOMILLASHTIRISH ("MUSIQA TA'LIMI" MISOLIDA)

UDK 378.147:78

Raximov Nurillo NarzullayevichGuliston davlat pedagogika instituti,
"San'atshunoslik" kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Maqolada dual ta'limning nazariya va amaliyotni integratsiyalovchi modeli, uning O'zbekistonda joriy etilish asoslari hamda bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashdagi ahamiyati yoritiladi. "Musika ta'limi" yo'nalishi misolida uch tomonlama hamkorlik, mentorlik va sertifikatlash talablari bilan o'quv jarayonini uyg'unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Natijalar dual ta'lim va kompetensiyaga yo'naltirilgan amaliyot bitiruvchilarning kasbiy moslashuvi hamda raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, integratsiya, mentorlik, malakaviy amaliyot, kasbiy kompetensiya, mehnat bozori, musiqa ta'limi, sertifikatlash.

Abstract: The article examines the dual education model as an approach that integrates theoretical instruction and practical training, outlines the foundations for its implementation in Uzbekistan, and discusses its significance for preparing graduates for labor market requirements. Using the "Music Education" program as a case, the study analyzes issues related to aligning the educational process with tripartite cooperation, mentoring, and certification requirements. The findings indicate that dual education and competency-based practicum contribute to enhancing graduates' professional adaptation and competitiveness.

Key words: dual education, integration, mentoring, qualification-based practicum, professional competence, labor market, music education, certification.

Аннотация: В статье рассматривается модель дуального обучения как подход, интегрирующий теоретическое обучение и практическую подготовку, раскрываются основы её внедрения в Узбекистане и значение для подготовки выпускников к требованиям рынка труда. На примере направления "Музыкальное образование" анализируются вопросы согласования образовательного процесса с трёхсторонним сотрудничеством, наставничеством и требованиями сертификации. Результаты показывают, что дуальное обучение и компетентностно-ориентированная практика способствуют повышению профессиональной адаптации и конкурентоспособности выпускников.

Ключевые слова: дуальное обучение, интеграция, наставничество, квалификационная практика, профессиональная компетентность, рынок труда, музыкальное образование, сертификация.

KIRISH

Globalashuv, texnologik yangilanish va mehnat bozorining tez transformatsiyasi sharoitida ta'lim tizimining barqaror rivojlanishdagi roli yanada kuchaymoqda. Ish beruvchilar nafaqat nazariy tayyorgarlikni, balki real ish vazifalarini bajarishga tayyor, tez moslashuvchan, kommunikativ va mas'uliyatli mutaxassislarni talab qilmoqda. An'anaviy ta'lim amaliyotida esa nazariya-amaliyot nisbatining nomutanosibligi, ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) muhitiga kirib borish imkoniyatlarining cheklanganligi bitiruvchilarning ish joyiga moslashuvini sekinlashtirishi mumkin. Shu bois, ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashtirish, amaliy kompetensiyalarni maqsadli shakllantirish va "ta'lim – ish beruvchi – talaba" hamkorligini institutsional darajada yo'lga qo'yish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mazkur vazifalarni yechishda dual ta'lim modeli samarali instrument sifatida qaraladi. Dual ta'limning konseptual mohiyati – talabaning nazariy tayyorgarligi (oliy ta'lim muassasasi) bilan amaliy tayyorgarligini (korxona yoki tashkilot, shu jumladan umumta'lim muassasasi) yagona jarayon sifatida integratsiyalashdan iborat. Ushbu modelda talaba passiv tinglovchi emas, balki real mehnat vazifalarini bajarish jarayonida o'qiydigan, kasbiy muammolarni hal etishga jalb qilinadigan faol subyektga aylanadi. Natijada nazariy bilimlar amaliy vaziyatlar orqali mustahkamlanadi, kasbiy ko'nikmalar esa tizimli ravishda shakllanadi.



O'zbekistonda dual ta'limni joriy etish va kengaytirish bo'yicha normativ-huquqiy hamda tashkiliy asoslar bosqichma-bosqich kuchayib bormoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori bilan belgilangan bo'lib, unda dual ta'lim subyektlari, hamkorlik mexanizmlari, ta'lim jarayonining nazariy va amaliy qismini muvofiqlashtirish hamda uch tomonlama shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish masalalari tartibga solingan ^[2:1-3].

Davlat siyosati darajasida dual yondashuvni rag'batlantirish masalasi ham alohida ta'kidlanadi: 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomada texnikum–ish beruvchi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish, dual ta'limni samarali tashkil etgan korxonalarga 7 yil muddatga 5 mlrd so'mgacha imtiyozli kredit, tadbirkorlik reytingida qo'shimcha ball va ayrim soliq imtiyozlari nazarda tutilgani qayd etilgan ^[1:309-311].

Shuningdek, mehnat bozoriga yiliga 300 ming nafar oliy ma'lumotli kadr kirib kelayotgani, bitiruvchilar va ish beruvchilarni bog'laydigan raqamli ekotizim yaratish rejaları e'lon qilingan ^[1:319]. Bu yondashuvlar dual ta'limni nafaqat pedagogik texnologiya, balki bandlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlovchi tizimli mexanizm sifatida namoyon etadi.

Ayni paytda, barcha bitiruvchi bosqich talabalarini bir vaqtning o'zida dual ta'lim bilan to'liq qamrab olish resurslar, hamkor tashkilotlar sig'imi, mentorlar zaxirasi va o'quv jadvallarining muvofiqligi kabi omillar bilan cheklanadi. Shu sababli dual ta'lim bilan bir qatorda malakaviy amaliyot mexanizmlarini ham takomillashtirish, ularni ta'lim natijalari va mehnat bozorining real talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. Xususan, "Musika ta'limi" yo'nalishida kasbiy kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri ijrochilik (cholg'u) ko'nikmalari hisoblanadi; mazkur ko'nikmalar umumta'lim muassasasida dars o'tish, sinf va sahna madaniyatini boshqarish, turli musiqiy faoliyat turlarini (tinglash, jamoa bo'lib kuylash, ijro, ijodiy tahlil) tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2025-yil 17-oktabrdagi 652-son qaror bilan musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim va kasbiy mahoratini aniqlash hamda sertifikatlash bo'yicha milliy baholash tizimi joriy etilgani ushbu kompetensiyalarning amaliy mezonlar asosida talab qilinishini yanada kuchaytirmoqda ^[3:1-3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur ish amaliyotga yo'naltirilgan analitik yondashuv asosida tayyorlandi. Tadqiqot dizayni sifatida:

- 1) normativ-huquqiy hujjatlar va siyosiy nutqlarda dual ta'limga oid maqsad hamda mexanizmlarni kontent-tahlil qilish;
- 2) dual ta'lim va malakaviy amaliyotning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi rolini funksional taqqoslash;
- 3) Guliston davlat pedagogika institutining "Musika ta'limi" yo'nalishida dual ta'lim va malakaviy amaliyotni tashkil etish amaliyotini (jadval, uch tomonlama shartnoma, mentorlik, metodik kuzatuv) tavsifiy tahlil qilish;
- 4) milliy baholash tizimi talablarini kompetensiyalar bilan moslashtirish yo'nalishlari belgilandi.

Ma'lumot manbalari sifatida Prezident Murojaatnomasi matni ^[1:309-320], oliy ta'limda dual ta'limni tashkil etish bo'yicha nizom ^[2:1-3] hamda sertifikatlash bo'yicha milliy baholash tizimini joriy etgan qaror ^[3:1-3] asosiy hujjatlar sifatida tanlandi. Tahlil jarayonida "nazariya–amaliyot integratsiyasi", "uch tomonlama shartnoma", "mentorlik", "kompetensiya", "baholash mezonlari" kabi kategoriyalar bo'yicha kodlash va mantiqiy umumlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim modelining asosiy ustunligi – ta'lim natijalarini real mehnat vazifalari bilan bevosita bog'lash va "ish joyida o'qitish" orqali kasbiy identifikatsiyani erta shakllantirishdan iborat. Murojaatnomada dual ta'lim asosida 70 mingga yaqin o'quvchi ta'lim olayotgani va amaliy mehnat orqali daromad topish imkoniyatiga ega bo'layotgani qayd etilgan bo'lib, bu dual ta'limning iqtisodiy motivatsiya va bandlik bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi ^[1:309-310].

Shu bilan birga, har yili 300 ming nafar oliy ma'lumotli kadrning mehnat bozoriga kirib kelishi bitiruvchilarni ishga joylashtirish mexanizmlarini institutlashtirish zaruratini kuchaytiradi ^[1:319]. Demak, dual ta'lim va unga yondosh mexanizmlar (raqamli ekotizim, ish beruvchi bilan shartnomaviy munosabatlar) bitiruvchining "ta'limdan ishga" tranzitini tezlashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimidagi dual ta'limning tashkiliy modelida uch subyekt – talaba, ta'lim muassasasi va ish beruvchi – ishtirok etishi, ularning majburiyatlari shartnoma asosida belgilanishi hamda nazariy va amaliy qismlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarining mavjudligi tizimning boshqaruvchanligini ta'minlaydi ^[2:1-3].

Ushbu yondashuvning amaliy proektsiyasi sifatida Guliston davlat pedagogika institutida "Musika ta'limi" yo'nalishining bitiruvchi bosqich talabalari uch tomonlama shartnomalar asosida yashash joylaridagi umum-

ta'lim maktablarida kasbiy faoliyatni boshlayotgani, haftaning ma'lum kunlari amaliy faoliyat uchun ajratilgani hamda mentorlik tizimi yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Mazkur amaliyot talabaning dars o'tish jarayonida metodik tayyorgarligi, kommunikativ salohiyati, sinf boshqaruvi va musiqiy ijrochilik ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim bilan bir qatorda malakaviy amaliyotning ham kasbiy kompetensiyalar shakllanishida muhim o'rin tutishi aniqlandi. Dual ta'lim, odatda, uzoq muddatli, tizimli jadval va uch tomonlama majburiyatlarga tayansa, malakaviy amaliyot ma'lum davr oralig'ida talabaning real pedagogik muhitda tajriba orttirishini ta'minlaydi. "Musika ta'limi" yo'nalishi misolida malakaviy amaliyotning tarkibiy elementlari sifatida musiqa darslarini o'tkazish, musiqiy faoliyat turlarini tashkil etish, konsert va tadbirlarni rejalashtirish, xor va ansambl mashg'ulotlarida ishtirok etish, dars ishlanmasi hamda repertuar tanlash kabi faoliyatlar ajratib ko'rsatildi. Amaliyotning mazkur tarkibi bitiruvchining kelgusidagi mehnat vazifalari bilan to'g'ridan-to'g'ri mos keladi va natijada "kasbiy moslashuv" davrining qisqarishiga xizmat qilishi mumkin. Milliy baholash tizimining joriy etilishi (652-son qaror) musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan amaliy talablarni yanada aniqlashtiradi ^[3:1-3].

Xususan, musiqiy tinglash va jamoa bo'lib kuylash faoliyatlari bo'yicha repertuarni ijro etish, shuningdek, milliy cholg'ularda ijro qilish kabi komponentlar amaliy ko'nikmalar bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan institutda ijrochilik tayyorgarligini kuchaytirish bo'yicha kichik guruhlar tashkil etish, tengdosh-mentorlik tizimini joriy etish (iqtidorli talabalarni sardor sifatida birlashtirish), amaliy attestatsiya sinovlarini sahna sharoitiga yaqinlashtirish kabi tashkiliy yechimlar "kompetensiya – baholash mezonlari" mosligini kuchaytiruvchi instrumentlar sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar dual ta'lim tizimini ta'lim samaradorligi, bandlik darajasi va kadrlar raqobatbardoshligini oshiruvchi integratsion model sifatida baholashga asos beradi. Dual ta'limning kuchli tomoni nazariya va amaliyotni yagona jarayonda integratsiyalash, ish beruvchining ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi hamda talabaning real mehnat vazifalarida ishtiroki orqali kasbiy kompetensiyalarni tezroq shakllantirish imkoniyatidir ^[2:1-3]. Murojaatnomada dual ta'limni rag'batlantirish mexanizmlarining e'lon qilinishi ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish uchun institutsional motivatsiya yaratayotganini ko'rsatadi ^[1:309-311].

Shu bilan birga, mehnat bozoriga katta hajmda bitiruvchilarning kirib kelishi bitiruvchi va ish beruvchini bog'lovchi mexanizmlarni, jumladan, raqamli ekotizimlar, shaffof bo'sh ish o'rinlari bazalari va akademik ko'rsatkichlar integratsiyasini tezroq joriy etish zarurligini kuchaytiradi ^[1:319].

Amaliy jihatdan barcha bitiruvchilarni to'liq dual ta'limga qamrab olish imkoniyati cheklangan sharoitda malakaviy amaliyotni "oddiy amaliyot" darajasida emas, balki kompetensiyaga yo'naltirilgan, baholash mezonlari bilan moslashtirilgan hamda mentorlik va metodik kuzatuvga tayanuvchi model sifatida qayta dizaynlash maqsadga muvofiqdir. "Musika ta'limi" yo'nalishida bu, eng avvalo, cholg'u ijrochiligi, repertuar bilan ishlash, sahna va sinf boshqaruvi, darsni metodik loyihalash kabi ko'nikmalarni tizimli rivojlantirishni talab qiladi. 652-son qaror bilan joriy etilgan milliy baholash tizimi sharoitida mazkur ko'nikmalarni institutning o'quv rejasi, yakuniy attestatsiya shakllari va amaliyot mazmuni bilan uyg'unlashtirish bitiruvchining "sertifikatlash" va "mehnat faoliyatiga kirish" bosqichlarini sezilarli darajada yengillashtirishi kutiladi ^[3:1-3].

Ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish masalasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham konseptual darajada mustahkamlangan bo'lib, unda dual ta'lim alohida ta'lim olish shakli sifatida qayd etiladi va nazariy qism ta'lim tashkilotida, amaliy qism esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi belgilangan ^[5:6]. Ushbu norma dual ta'limni oddiy "amaliyot" sifatida emas, balki ta'lim natijasini ishlab chiqarish va ish muhiti bilan uzviy bog'laydigan tizimli model sifatida talqin qilishga asos beradi. Ilmiy-metodik adabiyotlarda dual ta'limni joriy etish mexanizmlarida hamkorlikni boshqarish (ta'lim muassasasi – ish beruvchi), o'quv natijalarini amaliy vazifalar bilan uyg'unlashtirish hamda baholash mezonlarini aniqlashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etiladi ^[6:1].

Shuningdek, dual ta'lim samarasi ko'pincha talabaning ish joyiga moslashuvi tezlashishi, amaliy kompetensiyalar va kommunikativ ko'nikmalarining barvaqt shakllanishi bilan izohlanadi ^[7:1; 8:1]. Ushbu yondashuv, ayniqsa, pedagogika yo'nalishlarida "o'qituvchi kasbiga kirish" bosqichini soddalashtirishi bilan ahamiyatli bo'lib, talaba real sinf muhitida dars o'tish ^[9:1], tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini bevosita amaliy vazifalar orqali egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Musika ta'limi" yo'nalishi misolida dual ta'lim va malakaviy amaliyotning qiymati yanada aniq ko'rinadi, chunki bu yo'nalishda kasbiy kompetensiya faqat metodik bilimlar bilan cheklanmay, balki ijrochilik tayyorgarligi, repertuar bilan ishlash, sahna va sinf boshqaruvi, ansambl/xor bilan ishlash hamda musiqiy-estetik didni tarbiyalash kabi murakkab ko'nikmalar majmuasini qamrab oladi ^[11:530].



Tadqiqotlarda musiqiy ta'limning globallashuv fonida "madaniy migratsiya" jarayonlari bilan ham uzviy bog'liqligi qayd etilib, bu holat o'qituvchidan repertuar tanlashda kontekstni hisobga olish, milliy va jahon musiqiy merosini uyg'un talqin qilish kompetensiyasini talab etishi ta'kidlanadi ^[10:92]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning musiqiy didini rivojlantirishda milliy va jahon merosini didaktik asosda uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvlar musiqiy tarbiya mazmunini boyituvchi ilmiy-metodik resurs sifatida qaraladi ^[14:1].

Bundan tashqari, raqamli muhitdan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ishlanmalar musiqa darslarida media-resurslar, audio va video materiallar, interaktiv topshiriqlar hamda onlayn platformalardan foydalanish o'quv motivatsiyasi va ijodiy faollikni kuchaytirishini ko'rsatadi ^[15:5].

Dual ta'limning amaliy samaradorligi, ayniqsa, milliy baholash va sertifikatlash tizimlari kuchayayotgan sharoitda yanada ortadi, chunki baholash mezonlari bevosita amaliy ijro, tahlil va pedagogik mahorat bilan bog'langan bo'lsa, ta'lim jarayonida ham ana shu amaliy komponentlar ustuvor qo'yilishi zarur bo'ladi ^[11:533]. Shu ma'noda, talabalarning an'anaviy xonandalik va ijrochilik mahoratini shakllantirishda asosiy ijrochilik ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar (bosqichma-bosqich mashqlar, repertuar murakkabligini izchil oshirib borish, refleksiv tahlil) dual ta'lim va malakaviy amaliyot mazmunini metodik jihatdan to'ldiradi ^[12:32]. Ta'lim natijadorligini oshirishda ijodiy kompetensiyalar ham muhim omil bo'lib, ular pedagogning kasbiy o'sishi va dars jarayonida kreativ yechimlar ishlab chiqish salohiyatini belgilashi ilmiy manbalarda asoslanadi ^[16:1]. Mazkur g'oya tasviriy san'at yo'nalishidagi tadqiqotlarda ham "ijodiy kompetensiya – kasbiy o'sish" bog'liqligi orqali yoritilib, bu yondashuv musiqiy ta'limda ham metodik jihatdan transfer qilinishi mumkinligi ko'rsatiladi ^[17:1].

Demak, musiqiy ta'lim yo'nalishida dual ta'lim va malakaviy amaliyotni rivojlantirishning asosiy vektori sertifikatlash talablariga mos ijrochilik tayyorgarligini kuchaytirish, raqamli didaktik vositalardan oqilona foydalanish hamda milliy va jahon merosi asosida estetik tarbiyani chuqurlashtirishdan iborat.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dual ta'lim ta'lim va mehnat bozori ehtiyojlarini birlashtiruvchi, nazariya va amaliyotning uzviyligini ta'minlovchi hamda bitiruvchining kasbiy moslashuvini tezlashtiruvchi samarali model hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun hamkor tashkilotlar sig'imini oshirish, mentorlarni tayyorlash va rag'batlantirish, uch tomonlama shartnomalarni amalda ishlaydigan boshqaruv instrumentiga aylantirish, shuningdek, dual ta'lim bilan qamrab olinmagan talabalar uchun malakaviy amaliyotni kompetensiyaga yo'naltirilgan shaklda kuchaytirish zarur. Ta'lim tashkiloti darajasida esa baholash mezonlari (milliy sertifikatlash talablari) bilan o'quv mashg'ulotlari va amaliyot mazmuni o'rtasidagi "moslik"ni muntazam monitoring qilish, amaliy attestatsiyalarni real ish sharoitiga yaqinlashtirish hamda ijrochilik ko'nikmalarini intensiv rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar raqobatbardosh musiqa o'qituvchisini tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7332601>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (163-son, 2021). <https://lex.uz/uz/docs/-5346217>
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-637-son, 2020). <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. Ashurova S., Karimova N. Dual ta'limni joriy etish metodlari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2025.
6. Aslonova D. B. Ta'limda dual ta'limning o'rni. PEDAGOGS Journal.
7. Jo'rayeva M. T. Dual ta'limda korxonaning roli va mas'uliyatlari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi.
8. Dual ta'limning yoshlar faoliyatiga ta'siri. Bulletin of Pedagogics of New Uzbekistan, 2023.
9. Nurillo R. Globallashuv davrida musiqa san'ati migratsiyasi jarayonlarining madaniyatlar o'zgarishidagi ta'siri. Elita. uz – Elektron ilmiy jurnal, 2024, 2(1), 92-94.
10. Raximov N. Bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash: muammo va yechimlar. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 2025, 5(3), 530-538.
11. Narzullayevich Y. S. Talabalarning an'anaviy xonandalik mahoratlarini shakllantirishda asosiy ijrochilik ko'nikmalari. Prospects and Main Trends in Modern Science, 2024, 2(17), 32-35.
12. Nuraliyeva Z. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida musiqaning o'rni. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(1), 67-69. Manba: <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/42981>
13. Abdumannonova N. B. Milliy va jahon musiqiy merosi asosida yoshlar musiqiy didini rivojlantirish. International Conference on Global Studies, 1(4), 2025.
14. Sattarov A. A. O'g'li. Musiqa darslarida raqamli muhit orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2024, 2(4), 5-8.
15. Jumaboev N. P. Development of creative competencies as the foundation of professional growth for visual arts teachers. Zenodo, 2025.
16. Jumaboev N. P. Organizing visual arts lessons and enhancing their effectiveness based on modern pedagogical requirements. Conference of Modern Science & Pedagogy, 2025, 1(5).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.